


Gulasal Axtamova

ISTIQLOL CHECHAKLARI





GULASAL AXTAMOVA
ISTIQLOL CHECHAKLARI
SHE`RLAR

“DURDONA” NASHRIYOTI

2011

Ijod totli hamda mashaqatli jarayon. Uni go`zal asarga aylantirish uchun mehnat matonat talab qilinadi. Gulasal Axtamova bunday matonatga erta qo`l urdi. Ko`ngliga tushgan she`r ishtiyoqi Gulasalni go`zal bir boqqa undadi. Umid qilamizki, bu bog`dan u hali sara gullar teradi. Mehr bilan, sehr bilan she`rlar bitadi. Gulasalni ijodiyot sari qo`ygan ilk qadamlari bilan qutlab qolamiz.

Gavxar Xolmurodova

MUBORAK BO'LSIN

Qancha kunlar o'tdi boshingdan,
Ne savdolar kechdi qoshingdan.
Tog' yasaldi sabr bardoshingdan,
Yigirma yosh muborak, yurtim.

Bugun baxt -iqbolga erishding
Oftobli kun bilan ko'rishding.
Munavvar tong uchun kurashding
Yigirma yosh muborak, yurtim.

Elda har kun bayram, tantana,
To'ylar qilmoq go'zal an'ana.
Dunyo bizni tanidi mana
Yigirma yosh muborak, yurtim.

XALQARO XOTIN-QIZLAR KUNI

Bugun bayram bizlarning,
Onaxonu qizlarning.
Bayramimiz baxtimiz
Orzu to'la ahdimiz.

Gulldasta yasab guldan,
Tabriklaymiz chin dildan.
Qalbim limmo-lim tilak
Deyman, bayram muborak.

ONA

Onaizor bag'rida,
Orom olar bolajon.
Ona yo'q joyda esa,
Xomush qolar bolajon.

Ona mehri beqiyos ,
Sen quloq sol so'ziga.
Yolg'izlatmagil zinhor,
Suyanchiq bo'l o'ziga.

Onasiz dunyo notinch,
Olam mushtoq bu zotga.
Bo'lmasin qalbi yarim,
Qoldirmang hech uyotga.

TINCHLIK

Tinchlik bor ekan har dam,
Gullar ochilib yashnar.
Xalq tashlab shahdam qadam
Quradi obod shaxar.

Bayram to'y-u tomosha,
Yangraydi qo'shiq, g'azal.
Kashfiyotlar yaralar
Hayot naqadar go'zal.

OILAM

Oilada tinch-totuv,
Biz yashaymiz-oltovlon.
Ota-onam shaydirlar,
Xalq xizmatida har on.

Opam,akam –talaba,
Men- havaskor ijodkor.
Kelgusida albatta,
Bo`lmoqchiman shifokor.

Oilamiz orzusi –
Yuksakka parvoz etish.
Kashfiyotlar yaratib,
Yuksak cho`qqiga
yetish.

MENING YURTIM

Men tug`ildim shu hur makonda,
Bundan qancha faxrlansam kam.
Kamol topdim, nurli bo`stonda,
Mehr topdim yurtidan chinakam.

Etay derman olamga ko`z-ko`z,
Bitay derman sha`niga doston.
Madh etishga topolmam hech so`z
Go`zal chamandir O`zbekiston.

TA'ZIM

[Ustozim Xurshida opaga]

Sizga ta'zim –la bu kun
Qo'limga oldim sozim.
Madh etishga shaylandim,
Mening ulug' ustozim!

Nur taratar yuzingiz,
Dur sochadi so'zingiz.
Kamol berar izingiz,
Ming tashakkur ustozim!

Sizning baxtingizmiz-biz,
Toj-u taxtingizmiz- biz.
Ulkan shonimizsiz –siz
Tilda doston ustozim!

BAXTIMIZ QOMUSI

Baxtnoma kitobi qo'limda,
Haqiqat koz'gusi dilimda.
Mustaqil zaminda yashovchi,
Insonlar baxti bor elimda.

Dil quvnaydi nuridan
Baxt qomusi duridan.
U jamlangandir zukko

Insonlar shuuridan.

USTOZ

Tanimasdim birorta harfni,
Qalamni ham bilmasdim tutib.
Bildim bir zot yashar dunyoda
Bizni deya o`zni unitib.

Endi harflar bo`ldilar o`rtoq,
Qalam ushlar kelar qo`limdan.
Qarzdordirman ustozdan biroq
Boxabardir har bir yo`limdan.

Rahmat aytay sizga ming bora,
Shu so`zlarim sizga baxshida.
Dunyo borki, turingiz zora,
Ta`zimdaman sizga hamisha

QISHLOG`IM

Naqadar go`zalsan, qishlog`im,
Chiroyli azalsan, qishlog`im.
O`zingsan mening ko`z qarog`im
Tillarda g`azalsan, qishlog`im.

Chorlab turar bizni o`ziga
Gullab turgan jannatday bog`ing
Ajib gulshan hamda ozoda
Obod erur har bir chorbog`ing.

MAKTABIM

Senda ta`lim olamiz,
Mehr berib o`qiymiz.
Sha`ninga aytib rahmat
She`r, g`azallar to`qiymiz.

Har tomoning gul-gulzor,
Ozoda va maftunkor.
Mevali daraxtlaring
Turishadi serviqor.

Dovonlardan oshamiz ,
Noming dilda saqlaymiz.
Mening aziz maktabim,
Ishonchingni oqlaymiz.

YURTIM

Yurtim mening durdona,
Ellar aro yagona.
Intiladi mardona,
Nomi O`zbekistondir.

Jamoli ko`zni olar,
Dunyo ahli lol qolar.
Xalqi mehnatni sevar,
Sha`ni tilda dostondir.

MENING DO'STIM

Men barkamol- yosh avlod,
Kitob o`qiyman har choq.
Izlanaman – ko`nglim shod
Kitobga mehrim chanqoq.

O`rganaman kitobdan,
Zo`r bilim sirlarini.
Bu bemisl “oftob”dan
Olaman nurlarini.

Yaxshilikka chorlovchi
Kitob mening do`stimdir.
Men - Vatan kelajagi
O`qish, uqish burchimdir.

BUVIJONIM

Aziz buvijonginam-
Uyimiz farishtasi.
Munis mehribonginam-
Xonadon sarishtasi.

Boshimizga sog' bo'ling,
Doimo omon yuring.
Farzandlaringiz uchun
Har doim kulib turing.

BAHOR

Yana bahor keldi, o`lkamga
Yosh novdalar yozdi kurtaklar.
Yana yetdik, turfa olamga
Erksevar xalq bizni yetaklar.

Tabiatni bezadi nurga,
Baxt elchisi – lolalar, gullar
Olislardan bahorni kuylab
Xonish etib kuylar bulbullar .

Shox kuylarga to`ldi bog` - rog`lar
Bu qo`shiqdan yayrar ko`ngillar.
Oppoq bo`lib gulladi daraxt,
Unga qarab zavq olar dillar.

HAYOT

Hayot qiziq ekan
Sirli, ajoyib.
Sinov, tashvish ila
Jumboq, g`aroyib.

Goh tuhfar qilib
Quvnoq bu hayot.
Ezgu maqsad sari
Yozamiz qanot

SUVIMIZNI ASRAYLIK

Na rangi bor, na shakli,
Uni sevib kelamiz.
Inson uchun kerakli
Buni yaxshi bilamiz.

Usiz bizga hayot yo`q,
Usiz yashay olmaymiz.
Bir tomchisi bo`lmasa
Bir zum ham turolmaymiz.

Isrof qilmasdan uni
Ko`z nuridek saqlaylik.
Onamizdek mo`tabar
Suvimizni asraylik.

ONA TABIAT

Goho sirli, goho g`aroyib
Doim go`zal, doim ajoyib.
Dilimizga xushvaqtlik solib
Ajoyibdir ona tabiat.

Ham yomg`iri, ham qorlari bor,
Gul – chechakli bahorlari bor.
Shaldiragan anhorlari bor
G`aroyibdir ona tabiat.

CHUMOLI

Hasharotlar ichida
Eng mehnatkash chumoli.
Doim yelib yugurar,
Beoromdir ahvoli.

O`zi mitti bo`lsada
Yugurib – yelar chunon
Og`ir – og`ir donni ham
Manzilga eltar chaqqon.

Kichkina demang uni
Pahlavon u tolmaydi
Qishin – yozin demasdan
Rizq tashishdan tolmaydi.

TABIAT

Tabiat buncha go`zal
Jamolingdan to`ymayman.
Bag`ringda bulbul g`azal
Kuylaydi yayraydi tan.

Senga kuyim baxshida
Bulbul navosi kabi.
Go`zal she`rlar bitaman
Toza havosi kabi.

OYMOMO

Oymomojon, oymomo,
Sen-la tunlar charog`on.
Osoyishta, tinch samo
Doim bo`lgin sog` - omon.

Oppoq, oydin yuzlaring
Xayolimni etar band.
Sen taratgan yog`dudan
Butun olam bahramand.

Bag`ri keng oymomojon,
Sen ham iqboling kuyla.
Istiqlol to`yi bugun,
Baxtli elingni qutla.

YOMG`IROY

Yomg`iroy nega jimsan?
Axir bahor keldi-ku.
Sog`indim to`xtamas hech
Shamol kabi eldi-ku.

Sog`inib dala – dashtlar
Tun-u kun seni chorlar
Faqat seni shivirlab,
Kutar kurtak – yaproqlar.

GULIM

Jannatday go`zal erur,
Hammani xursand qilur.
Bag`ishlaydi ko`rk – surur
Qizil gulim, nozik gul.

Oftob, oydir onasi,
Zamin uning otasi
G`unchalari bolasi
Qizil gulim, nozik gul.

Nomlari turfa erur,
Lola, rayhon, atirgul.
Kulib turadi nuqul
Qizil gulim, nozik gul.

BAHORROY

Keldi bahor, gul bagor
Dillarga shodlik solib.
Shovillab oqar anhor
Hayot sururin olib.

Hamma yoq ko`m-ko`k ko`klam,
Hayot misli jo`shqin soy.
Buncha g`ozalsan olam
Xush kelibsan, Bahoroy!

YANGI YIL

Mana bugun do`stlarim
Yangi yil kirib keldi.
Dillarga quvonch solib
Tuhfalar olib keldi.

Qorbobo hamda qorqiz
Dala-yu qirlar oshdi.
Bizga degan sovg`asi
Qopidan to`lib toshdi.

DO`ST

Do`st topish osonmas
Bilib qo`y inson.
Do`st qadrin anglagin
Har soat, har on.

Do`st mangu sirdoshdir,
Do`st mudom qalbdosh.
Boshingda tut uni
Ey aziz, yurtdosh.

KUZ

Keldi saxiy oltin kuz
Mevalar yeb to`yamiz.
Savatlar liq – liq to`la
Qishga g`amlab qo`yamiz.

ERTAKLAR

Bizni doim ertaklar
Yaxshilikka yetaklar.
Bo`lgin odobli bola
Qilishmasin ermaklar.

ORZUIM


Derlar orzuga ayb yo`q
Mening ham ko`p niyatim.
Xalqim dardiga darmon
Topsam, zo`r kayfiyatim.

VATANIM

Men Vatanim sevaman
Unga jonim beraman
Chorlasa, labbay deya
Xizmatga shay turaman.

MUNDARIJA

1. Muborak bo`lsin
Xalqaro xotin-qizlar kuni ----- 4
2. Ona, Tinchlik ----- 5
3. Oilam, Mening yurtim ----- 6
4. Ta'zim, Baxtimiz qomusi----- 7
5. Ustoz, Qishlog`im----- 8
6. Maktabim, Yurtim ----- 9
7. ening do`stim, Buvijonim----- 10
8. Bahor, Hayot----- 11
9. Suvimizni asraylik, Ona tabiat----- 12
10. Chumoli, Tabiat ----- 13
11. Oymomo, Yomg`iroy ----- 14
12. Gulim, Bahoroy ----- 15
13. Yangi yil, Do`st ----- 16
14. Kuz, Ertaklar,
Orzuim, Vatanim ----- 17



Gulasal Axtamova

Istiqlol chechaklari


She`rlar

Muharrir: I. Subhoni

Texnik muharrir:

Musahhih: H. Turdiyeva

Sahifalovchi:



Gulasal Axtamova Akbar qizi -

1998-yilda Buxoro viloyati, G`ijduvon tumanida tug'ilgan. Ayni chog'da tumandagi 36-umumta`lim maktabining 7- sinfida o`qimoqda.

Shu maktabning "Yosh qalamkash" to'garagi a'zosi.

